

# UZBEK LAW REVIEW



VOLUME 1  
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ  
ТАҲЛИЛИ**

**UZBEKISTAN LAW REVIEW**

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

|                                      |                                              |                                            |
|--------------------------------------|----------------------------------------------|--------------------------------------------|
| <b>ИЛМИЙ<br/>ТАҲЛИЛИЙ<br/>ЖУРНАЛ</b> | <b>SCIENTIFIC<br/>ANALYTICAL<br/>JOURNAL</b> | <b>НАУЧНО<br/>АНАЛИТИЧЕСКИЙ<br/>ЖУРНАЛ</b> |
|--------------------------------------|----------------------------------------------|--------------------------------------------|

---

---

**2025  
№1**

## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

## БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович – юридик фанлари доктори, профессор.

## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович – ю.ф.д., профессор.

Хужаев Шохжон Акмалжон ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой – ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёқубович – ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович – ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна – ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич – ю.ф.д., доц.

Беков Ихтиёр – ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович – ю.ф.д., проф. в.б.

Хазраткулов Одилбек Турсунович – юридик фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович – ю.ф.д., профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович – ю.ф.д., профессор.

Нарзиев Отабек Саъдиевич – ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш сўралади:

**Гулямов Саид Саидахарович,  
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович**  
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,  
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,  
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон  
нускаси Интернетдаги [www.library-tsul.uz](http://www.library-tsul.uz) ёки  
[www.lawreview.uz](http://www.lawreview.uz) сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси  
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация  
комиссияси журналлари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар, талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган. Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва кўпайтириш Тошкент давлат юридик университети рухсати билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент давлат юридик университетига мурожаат этилади. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**  
Нашриёт муҳаррири: **Н. Ниязова**  
Техник муҳаррир: **Д. Козимов**  
Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди – 28.03.2025

Нашриёт ҳисоб табағи – 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди  
Адади – 100 нуска.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ  
ЖУРНАЛ

1/2025

**Mamajanov Abrorbek Mirabdullayevich**

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat  
huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi  
kurashish kafedrası dotsenti v.b., PhD

**Muxammedaliyev Dauletali Muxammedali uli**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy  
huquq fakulteti talabasi

# **IQTISODIY JINOYATLARNI TERGOV QILISH DAVOMIDA BAHOLASH XIZMATIDAN FOYDALANISHNING ASOSLARI**

**Аннотация.** В данной статье изложены основы использования оценочных услуг при выявлении, раскрытии и доказывании экономических преступлений в Республике Узбекистан. При расследовании таких преступлений, как присвоение или растрата государственной собственности, уклонение от налоговых обязательств, легализация доходов, полученных от преступной деятельности, и других преступлений в сфере экономики и предпринимательства, в целях установления подлинности имущества, использованного в процессе совершения преступления, и доходов, полученных в результате преступления, провести оценку и признать заключение данной оценки доказательством по уголовному делу. Учитывая финансовый ущерб, причиненный экономическими преступлениями, в обеспечении безопасности бюджета, было проведено исследование с учетом того, что институту оценки следует уделять пристальное внимание в процессе расследования, дознания и доказывания в ходе предварительного расследования, проводимого в отношении этих преступлений. В статье также был проведен анализ научных работ иностранных ученых, национального и зарубежного законодательства в области оценки, чтобы определить важность института оценки в доказательстве экономических преступлений, а также приведены примеры случаев, встречающихся на практике.

**Ключевые слова:** экономическая безопасность, оценка, экономические преступления, бюджет

**Abstract.** This article outlines the basics of using assessment services in the identification, disclosure and proof of economic crimes in the Republic of Uzbekistan. When investigating crimes such as embezzlement or embezzlement of state property, embezzlement of tax obligations, legalization of income from criminal activities, and other crimes in the field of economics and entrepreneurship, in order to establish the authenticity of property used in the commission of a crime and income received as a result of a crime, evaluate and recognize the conclusion of this assessment. evidence in a criminal case. Taking into account the financial damage caused by economic crimes in ensuring budget security, a study was conducted taking into account that the institute of assessment should pay

close attention in the process of investigation, inquiry and evidence during the preliminary investigation conducted in relation to these crimes. The article also analyzed scientific papers on foreign deaths, national and foreign legislation in the field of assessment in order to determine the importance of the institute of assessment in proving economic crimes, and provided examples of cases encountered in practice.

**Keywords** economic security, valuation, economic crimes, budget

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlarning soni ortganligi sababli, ularni aniqlashda, fosh qilishda va dalillashda baholash xizmatlaridan foydalanish asoslari krsatib otildi. Davlat mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yoli talon-taroj qilish, soliq majburiyatlaridan boyin tovlash, jinoiy faoliyatdan topilgan daromadlarni legallashtirish kabi va boshqa iqtisodiyot va tadbirkorlik sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish davomida jinoyat sodir etish jarayonida qollanilgan mol-mulk va jinoyat oqibatida ortirilgan daromadlarning asli bahosini aniqlash maqsadida baholash otkazish va mazkur baholash hulosasini jinoyat ishiga dalil sifatida etirof etish mumkinligi ko'rstaib otildi. Iqtisodiy jinoyatlar oqibatida etkazilgan moliyaviy zararni inobatga olib, byudjet xavfsizligini ta'minlashda, mazkur jinoyatlar yuzasidan olib boriladigan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov davomida dalillash jarayoni davomida baholash intitutiga chuqur etibor qaratilishi lozimligini inobatga olib, izlJanishlar olib borildi. Shuningdek, maqolada iqtisodiy jinoyatlarni dalillashda baholash institutinng ahamiyatini aniqlash uchun xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, baholash sohasiga oid milliy va xorijiy qonunchiliklar tahlil qilinib hamda amalyotda uchraydigan holatlar misol tariqasida keltirilib mazkur natijaga erishildi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy xavfsizlik, baholash, iqtisodiy jinoyatlar, byudjet

## **Kirish**

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi o'z iqtisodiyotini keskin ravishda bozor iqtisodiyotiga tenglashtirib kelmoqda. Bozor iqtisodiyoti mamlakatimizda fuqarolarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Yurtimizda tadbirkorlik subyektlari ko'payishi oqibatida, ularning o'z faoliyati natijasida kelib chiqqan daromadlardan soliq to'lovlari davlat byudjetiga undirilib, byudjet mablag'rini asosiy qismini tashkil etadi. Vujudga kelgan davlat byudjeti har yili tegishli yonalishlarga taqsimlanib, davlat siyosati ijrosini moliyaviy tarafdin ta'minlab turadi. Muhtaram Prezidentimizning fuqarolarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulanishi uchun yaratib berilgan sharoitlarga qaramasdan, fuqarolar ichida oson mo'may daromad topish maqsadini ko'zlagan, mazkur sharoitlardan salbiy ravishda, yani kriminal faoliyat uchun foydalanadigan shaxslar topiladi va mazkur shaxslar davlat byudjetiga moddiy zarar etqazishni ko'zlab davlatimizning iqtisodiy

xavfsizligiga tahdid soladi. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy jinoyatlarning so'ni yetarlicha katta. 2019-2023 yillar oralig'ida respublikamizda qayd etilgan jinoyatlar soni 2,3 baravar ko'paygani va eng ko'p qayd etilgan jinoyatlar iqtisodiyot sohasida sodir etilgan bolib, 43,8% tashkil etgani statistikada qayd etilgan[1]. Mazkur jinoyatlarning yurtimizga keltiradigan moliyaviy zarari juda ko'p miqdorlarni tashkil etadi. Mazkur jinoyatlarning turkimini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida (keyingida JK) belgilangan: asosiy 167, 184, 243 va boshqa qo'shimcha moddalar tashkil qiladi [2]. Ko'p hollarda mazkur jinoyatlar boyicha dastlabki tergov ishlarini prokuratura organlari tergovchilari tomonidan olib boriladi. Mazkur jinoyatlar fosh etish va dalillash uchun Jinoyat Processual Kodeksida belgilangan qonuniy tarafdin mumkun bo'lgan tergov harakatlaridan foydalangan holda jinoyat ishlari yuritiladi. Mazkur maqolada yuqorida ko'rsatilgan jinoyatlar yuzasidan jinoyat ishlari ish yurituvchi davomida baholash intstitutidan foydalanishning asoslari, foydali tomonlari va muhimligi ko'rsatib otiladi. Horijiy o'limlar Chuantun L. va Kondrashova L.larning mazkur sohada olib borgan ilmiy ishlarida, baholash sohasining rivojlanishini tartibga soluvchi huquqiy normalarning yo'qligi, shuningdek, ushbu sohani turli davlat organlari tomonidan tartibga solish, baholash faoliyatining sub'ektiv segmentatsiyasi, baholash faoliyatini amalga oshirishning turli tarmoq standartlari va normalarining birgalikda mavjudligi, bozor segmentlari ustidan zaif nazorat tufayli davlat mulkini tasarruf etish, erlarni ekspropriatsiya qilish, davlat mulkini yo'qotish, bitimlarning nohaq belgilangan narxlar kabi muammolar mavjud bo'lib, ular tomonlarning huquqiy javobgarligi noaniq bo'lsa, mulk egalari zarari etkazilishiga olib kelganligini taqidlab o'tishgan. [3]

#### **Material va metodlar**

Mazkur tadqiqotni otkazish davomida, iqtisodiy jinoyatlarni bugungi kunda aktual mavzuga aylanganligi sababli mazkur jinoyatlarni tergov qilishda baholash xizmatlardan foydalanishning asoslarini, foydasini aniqlash maqsadida xorijiy olimlarning fikrlari, xorijiy davlatlarning qonunchiligi qollanilgan va chuqur tahlil qilingan holda mazkur natijaga erishildi.

#### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respubkasi «Baholash faoliyati to'g'risidagi» qonunining

3-moddasida, baholash faoliyati baholovchi tashkilotning baholash obyekti qiymatini aniqlashga qaratilgan faoliyatidir deb belgilangan. Mazkur faoliyatning maqsadi baholanuvchi obyektning qiymatini aniqlashdan iboratdur va uning natijalarida baholangan obyektning xususida bozor qiymati yoki bozornikidan farqlanuvchi qiymati qoyiladi va baholash pul shaklida amalga oshiriladi. Baholash obyektining bozor qiymati, uning eng ehtimol tutilgan narxi, unga ko'ra mazkur baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlarini yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakatlangan holda, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan

birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmagan holda belgilanadi. «Baholash faoliyati to'g'risida» qonunning 5-moddasida, baholash obyektlari jumlasiga alohida moddiy obyektlar (ashyolar), shaxsning mol-mulkini tashkil etuvchi ashyolar majmui, shu jumladan muayyan turdagi (ko'char yoki ko'chmas) mol-mulk, mol-mulkka yoki mol-mulk tarkibidagi ayrim ashyolarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, talab qilish huquqlari, majburiyatlari (qarzarlar), ishlar, xizmatlar, axborot, intellectual mulk obyektlari kabi va qonunchilikka fuqarolik muomalasida bo'lishi mumkinligi belgilangan boshqa fuqarolik huquqlari obyektlari kiritilgan [4]. Yuqorida sa'nab o'tilgan obyektlarning barchasi iqtisodiy jinoyat sodir etish jarayonida qo'llanilishi hamda jinoyat sodir etilishi natijasida mazkur narsalar o'rqali jinoyatchi o'ziga foyda o'rtirishi mumkin. Iqtisodiy jinoyatlarning turkumlari juda ko'p va ularning har biri o'ziga hos sxemasiga ega. Keyingida mazkur jinoyatlarning tahminiyl sodir etish uslublari ko'rsatib o'tilgan:

1) o'zganing mulkini rastrata va ozlashtish yoli bilan talon taroj qilish jinoyati keyingi tarizda sodir etilishi mumkin: "A" nomli davlat organi o'ziga kerak bo'lgan asbob uskunalarini yoki boshqa kerakli narsalarni xarid qilish maqsadida tadbirkorlik subyekti bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzadi va mazkur shartnomada xarid qilinayotgan narsalarning bahosi bozor qiymatiga qaraganda ko'paytirib yoki o'shirib ko'rsatilib tuziladi, keyinchalik mazkur narsalarni xarid qilinganidan keyin budjet mablag'laridan o'rtiqcha pul sarflanib, davlat g'aznasiga iqtisodiy zarar yetqazadi. Bunday holatlarda korruptsiya va mansabdor shaxslarning yaqin qarindoshlik alomatlar ham kuzatib otiladi. Bunday jinoyatlarni tergov qilish davomida davlat idorasi tomonidan sotib olingan narsalarga nisbatan baholash otkazilganda va baholash natijasiga ko'ra kelib chiqqan summaning baholangan narsalarning bozordagi baholari bilan taqqoslaganda, budjetdan ortiqcha mablag'lar sarflanganligiga guvosh bolish mumkin. O'lim Nikiforov B.S. fikrlashi boyicha, biror narsa uchun yuqori narxni belgilash, uni aslida nima bo'lganligi uchun emas, balki uni berish usulidir va bu narxdagi aldovdir, chunki "sub'ekt buyum uchun aslida bunga loyiq bo'lmagan narxni belgilaydi".[5]

Amaliyotdan misol keltiradigan bo'lsak, yaqinda davlat amaldor shaxsi, sobiq suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari rasmiy beparvolikni namoyon etganligi oqibatida, nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bilan bog'liq yirik loyihaning qiymati 95,4 million dollarga oshirganligi, bu esa byudjetdan 3,7 milliard so'm (296 ming dollar) asossiz sarflanishiga olib kelgan [6]

2) soliqqa oid jinoyatlarni tergov qilish davomida keyingi holatlar kuzatilishi mumkin: "A" nomli tadbirkorlik subyekti "n" nomli mahsulotlarni bozor narhida sotib, lekin soliq hisobotlarida mazkur mahsulotlar sotuvidan topilgan daromadni kamaytirilgan holda ko'rsatib o'tib, kamroq soliq to'lash maqsadida soliq majburiyatlaridan boyin tovlash jinoyatini sodir etishi mumkin va mazkur jinoyatni dalillash maqsadida mazkur mahsulotlarga nisbatan baholash o'tkazilsa va mahsulotlarning asli bahosi aniqlansa soliq

oid jinoyatni fosh etish imkoni boladi. Ob'ektning qiymatini noto'g'ri aniqlash bilan bog'liq bo'lgan narxdagi aldashdan, aybdor shaxs haqiqat uchun haqiqatdan ham qimmatroq narxni olish uchun aldashni amalga oshiradigan vaziyatni ajratib ko'rsatish kerakligini o'lim Kursaeв A.V. o'z ilmiy ishlarida ko'rsatib o'tgan.[7]

3) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati keyingi holatda sodir etilishi mumkin: masalan, "A" ismli shaxs eski tamirlanmagan yashash yoki boshqa qurilish ob'ektini arzon narxda xarid qilib, mazkur ob'ektning o'zining jinoiy yollar bilan topilgan daromadiga, tamirlash ishlarini olib borib, bir qavatli bino ustidan ikkinchi qavat qurib, buning uchun tamirlash ishlariga juda ko'p miqdorda pul sarflab, tamirlash uchun uzoq masofada yashaydigan quruvchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni jalb qilib va mazkur quruvchilar bilan bolgan mehnat munosabatlarni hech qanaqa mehnat shartnomasida aks ettirmasdan va tamirlash-qurilish ishlariga sarflanadigan qurilish va boshqa materiallarini tadbirkorlik subyektlaridan shartnoma tuzmasdan, yoki shartnomada sotib olinayotgan materiallarning narhini kamaytirilgan holda korsatib otib, tamirlash-qurilish ishlarini tugatib, mazkur ishlarga sarflangan jinoiy yo'l bilan topilgan pullarni yashirish yo'li bilan, legallashtirish alomatlari aks etirilgan jinoyatni sodir etish mumkin. Mazkur jinoyatni dalillash maqsadida mazkur obyektning sotib olingan vaqtidagi narhini, tamirlash-qurilish xizmatlarini va mazkur ishlardan natijasida vujudga kelgan binoni baholagan holda, unga tamirlash-qurilish ishlari uchun taxminan qancha miqdorda pul sarflanishini mumkinligini aniqlasa va kelib chiqadigan summani, gumon qilinuvchi shaxsning daromadlari yetishini yoki yetmasligini yoki sarflangan pullar qayerdan olganligini tekshirilsa va tushuntirishlar olinsa, legallartirish jinoyati fosh etish va dalillash mumkin.

M.Urazaliyev o'z ilmiy maqolasida, boshlang'ich narxni kamaytirish maqsadida o'tkazilgan kim oshdi savdolarini chetlab o'tib, shuningdek davlat xaridlari qonunchiligi talablariga roya qilmasdan tender o'tkazishni o'rni oshirilgan narxlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzib, ortiqcha byudjet mablag'larini sarflash va bunga vakolati bo'lmagan tashkilotlar tomonidan mazkur holatlar sodir etilib, bir qator tizimli buzilishlar holatlarini aniqlanganligini qayd etgan.[8]

Xorijiy olimlar Dr. J. K. Oyadonghan, Dr. S. Ogoun o'z ilmiy ishlarida, o'zlashtirish davlat sektoridagi firibgarlikning eng yuqori turi hisoblanishini, odamlar ataylab konvertatsiya qilishini, qo'rquv yoki vijdon buzilishsiz yo'li bilan jamoat fondi mablag'larini shaxsiy foydalanish uchun ishlatishini, shuningdek mazkur firibgarliklarning turiga shartnoma narxini oshirib yuborishligini taqidlagan.[9]

Yuqorida korsatib otilgan barcha jinoyatlarni sodir qilish jarayonida bevosita moddiy boyliklar qollaniladi va mazkur moddiy boyliklarning bahosi qimmatlashtirilgan yoki arzonlashtirilgan holatlar kuzatilishi mumkin.

Baholash xizmati nafaqat iqtisodiy jinoyat ishini tergov qilishda, balki byudjet mablag'larini talon-taroj qilinishining oldini olishga barham beradi. Misoli, davlat buyurtmasiga asosan qurilayotgan qurilish ob'ekti, yo'l yoki boshqa

infrastrukturalarning qurilish jarayonida xarid qilingan qurilish materiallarining asli bahosi, sarflangan pul mablag'larini qurilish natijalariga mos kelishi, qurilish xizmatlari uchun ishlatilgan byudjet mablag'larini qurilish jarayonida expert tomonidan baholanishi, mazkur ishlarda shubhali holatlarning aniqlanishiga asos boladi.

Baholash sohasining O'zbekiston Respublikasining jinoyat processual qonunchiligida ko'rsatilgan normalariga nazar solsa, baholash sohasi faqatgina jinoyat ishi doirasida mol-mulkni xatlash chog'ida qollanilishi aks ettirilgan, yani JPKning 293-moddasida, xatlanayotgan mol-mulk surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan uning eskirish darajasini e'tiborga olib, baholash paytida mavjud bo'lgan bozor narxida baholanishi, zarur hollarda baholash mutaxassis ishtirokida yoki baholovchi tashkilot tomonidan amalga oshirilishi belgilangan[10]. Mazkur normada baholash xizmati faqatgina mol-mulkni xatlash chog'ida foydalanilishi ko'rsatilgan, lekin mazkur xizmatlardan jinoyatni o'chish va dalillash maqsadida ham qo'llash mumkin.

#### Tadqiqot natijalari tahlili

O'tkazilgan mazkur tadqiqotning natijasida, iqtisodiy jinoyatlarni sodir qilish jarayonida yani soliq majburiyatlaridan boyin tovlash, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish, firibgarlik, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish kabi jinoyatlarni sodir etish jarayonida bevosita moddiy boyliklar qollanilishini va mazkur boyliklarning fuqarolik munosabatlariga ko'ra oldi-sotdi, ijara, sovga hamda boshqa munosabatlarga kirishish jarayonida mazkur boyliklarning bahosi bozor narxiga qaraganda kamaytirilib yoki kopaytirilib o'zgartirilishi mumkinligi aniqlandi. Rossiyalik o'lim Yusupov M.M., o'z ilmiy ishlarida, fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlari ob'ektlari, shubhasiz, qiymat toifasi bilan bog'liqdir, ular fuqarolik-huquqiy bitimlarning predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin, juda aniq moddiy qiymatga ega, ya'ni mulk bilan bir qatorda nazariy jihatdan jinoiy egalik predmeti bo'lishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan[11]. Mazkur jinoyatlar yuzasidan otkaziladigan tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov davomida jinoyatni fosh qilish va gumon qilinuvchi hamda ayblanuvchilarning aybini dalillash maqsadida baholash xizmatlaridan foydalanish, baholash natijalarini jinoyat ishiga ayrim hollarda dalil sifatida etirof etish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Baholash natijalari faqatgina dalillash va aniqlashda, hamda sodir etilgan jinoyatning oqibatida etkazilgan zararining miqdorini aniqlashda va mazkur zararining miqdori orqali Jinoyat Kodeksida belgilangan moddalarning kerakli qismi bilan tug'ri kvalifikatsia qilishga olib keladi. Jinoyat Kodeksida zararining miqdori: ancha, ko'p bo'lmagan, ko'p va juda ko'p miqdorlariga bo'lingan va mazkur miqdorlarga qarab jinoyat ishini kvalifikatsialash va miqdorga qarab jazo tayinlash amalga oshiriladi. Etkazilgan zararining aniq zarar miqdorini aniqlash uchun baholash xulosalari asosida tergovchi va sudya tomonidan tug'ri kvalifikatsialangan jinoyat moddasi ayblanuvchining adolatli jazo olishiga bevosita tasir qiladi.

Xorijiy qonunchilikga nazar solsa, Rossiya Federatsiyasi Oliy Sud Plenumning 13.10.2020 yildagi 23-sonli qarorida: sud jinoyat natijasida etkazilgan zararning mohiyatini va qondirilishi kerak bo'lgan talablarning hajmini sud majlisida o'rganilgan dalillar to'plami asosida ularni hukmga kiritish bilan belgilanishi qayd etilgan.[12]

Xulosalar

Mazkur tadqiqot natijasida, maqola mualliflari o'z izlanishlari davomida baholash xizmatlari jinoyat sodir etish oqibatida etkazilgan zararni aniqlash uchungina emas, balki baholash xizmatlari iqtisodiy jinoyatlarni yuzasidan amalga oshiriladigan tergovga qadar tekshiruv davomida fosh etish, o'chish maqsadlarida foydalanilishi, tergovchi tomonidan dastlabki tergov jarayonida baholash hulosalarini dalil sifatida qollanilishi va sudya tomonidan iqtisodiy jinoyat oqibatida etkazilgan zararning baholash natijasida aniqlangan zarar miqdori asosida ayblanuvchiga nisbatan adolatli hukm chiqarilishiga asos bolishi aniqlandi.

#### Список использованных литературы:

1. Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan. Available at: [stat.uz/ru/?preview=1&option=com\\_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=425&id=3142&Itemid=1000000000000](http://stat.uz/ru/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=425&id=3142&Itemid=1000000000000)
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Available at: [lex.uz/docs/111457](http://lex.uz/docs/111457)
3. Chuan'tun, L., Kondrashova, L. (2005). Kitaj: novye podhody k upravleniju gosudarstvennym imushchestvom. Problemy teorii i praktiki upravleniya, 1, 18-26
4. Baholash faoliyati tug'risidagi qonun Available at: [lex.uz/docs/24701](http://lex.uz/docs/24701)
5. Nikiforov B.S. Bor'ba s moshennicheskimi posjagatel'stvami na socialisticheskuyu i lichnuyu sobstvennost' po so vetskemu ugovnomu pravu. M., 1952. S. 128.
6. Available at: [fergana.agency/news/135187/](http://fergana.agency/news/135187/)
7. Otrasyevye Problemy Pravotvorcheskoj Jekspertologii Kurshev Aleksandr Viktorovich kandidat juridicheskikh nauk, glavnyj jekspert-specialist Dogovorno pravovogo departamenta MVD Rossii
8. M.Urazaliev, Davlat xaridlarida huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari, jurnal Jamiyat va innovatsiyalar 2023
9. Dr. J. K. Oyadonghan, Dr. S. Ogoun, Financial Misappropriation in the Nigerian Public Sector: A Determination of the Role of the Internal Auditor, International Journal of Innovation and Economic Development
10. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat Processual Kodeksi
11. o nekotoryh voprosah ocenki predmeta legalizacii (otmyvaniya) denezhnyh sredstv ili inogo imushchestva, priobretennyh drugimi licami prestupnym putem jusupov m.m.\* vestnik akademii jekonomicheskoy bezopasnosti mvd rossii • 2010 • № 10

12. Postanovlenie Plenuma Verhovnogo Suda RF ot 13.10.2020 № 23 «O praktike rassmotreniya sudami grazhdanskogo iska po ugovnomu delu»